

## **MOLIYA BOZORIDAN KAPITAL JALB QILISH AMALIYOTI TAHLILI**

Sadullayeva Mohinur G‘ayratjon qizi

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrисabz filiali o‘qituvchisi

Email: mohinursadullaeva2@gmail.com

Tel:974806677

**Tayanch so’zlar:** kapital, xalqaro moliya bozori, IPO va SPO jarayonlari.

### **Kirish**

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotidagi keskin raqobat va moliyaviy-iqtisodiy globallashuv sharoitida moliyaviy resurslarga talab kundan-kunga oshib bormoqda. Bundan kelib chiqqan holda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi korxonalar nafaqat milliy bozordan balki xalqaro moliya bozoridan ham kapital jalb qilish orqali o‘z faoliyati davomidagi moliyaviy masalalarni hal qilishga va o‘zini xalqaro bozorida tanitish, o‘z o‘rnini mustahkamlash hamda faoliyatini xalqaro darajada kengaytirishga harakat qilmoqdalar.

Mamlakatimizda xalqaro moliya bozoridan kapital jalb qilishni yana rivojlantirish, “kapital bozorini rivojlantirish, investitsiya muhitini tubdan takomillashtirish, davlat aksiyalar paketini sotish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish, shu jumladan davlat aktivlarini boshqarishning zamonaviy yondashuvlariga o‘tish, kapital bozorini iqtisodiyotni rivojlantirishning yetakchi omillaridan biriga aylantirish mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish muhim ekanligi” va uni rivojlantirish bo‘yicha qator islohotlar hamon mamlakatimizda davom ettirib kelinib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-son Farmonida ham ustuvor islohotlar yo‘nalishi sifatida keltirib o‘tilgan [1].

Hozirda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirish yirik hajmda moliyaviy resurslarga talabni oshiradi. Mazkur jarayon xalqaro moliya bozoridan kapital jalb qilishga ehtiyoj mavjud ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa xalqaro moliya bozorida faol ishtirok etib kapital jalb qilishning dolzarbligini o‘zida namoyon etadi.

Aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog‘ozlar bozori emitenti sifatida o‘z aksiyalarini ochiq va yopiq obuna tartibida joylashtirishlari mumkin. Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro darajada raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy kapital jalb qilish masalasi muhim ahamiyatga ega ekanligi va bu masala aksiyalarni ochiq obuna tarzida xalqaro fond birjalarida joylashtirish orqali




amalga oshiriladi hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sifatining o'sishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi[2].

Xalqaro moliya bozorining shakllanishi va rivojlanishi bevosita xalqaro savdo bilan paralell ravishda amalga oshgan.

Xalqaro moliya bozori orqali mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish bilvosita (kredit (depozit) bozori) va bevosita (qimmatli qog'ozlar) moliyalashtirilishi mumkin. Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro darajada raqobatbardoshligini oshirishda kapitalga ehtiyoj sezarli darajada mavjud. Bu esa xorijiy kapital jalb qilish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Aksiyalami ochiq obuna tarzida xalqaro fond birjalarida joylashtirish orqali ham hal etiladi hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sifatining o'sishiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Quyida aksiyalami ochiq obuna tartibida joylashtirish amaliyoti haqida o'z fikr-mulohazalarimizni berib o'tamiz.



### **1-rasm. XALQARO MOLIYA BOZORINING TARKIBIY KO'RINISHI [3]**

Aksiyalarni ochiq obuna tartibida joylashtirish amaliyoti qisqacha IPO (ing. (Initial Public Offering)) deb yuritiladi. IPO emitent tomonidan aksiyalarni bozorda birlamchi ochiq obuna usulida joylashtirish bo'lib, bu jarayon davomida ular

# Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Paris, France.

Date: 19<sup>th</sup> July, 2023

ISSN: 2835-3730

Website: econferenceseries.com

investorlarning keng doirasiga kirib boradilar va fond birjasida erkin savdoni amalga oshiradilar.

## 1-jadval. 2022-2023-YILLARDA AKSIYALARINI FOND BIRJASIDA BIRLAMCHI VA IKKILAMCHI OMMAVIY JOYLASHTIRISHI BELGILANGAN DAVLAT ISHTIROKIDAGI YIRIK AKSIYADORLIK JAMIYATLARI[4]

T/N	Korxonalar nomi	Aksiyalarni ommaviy joylashtirish shakli	Jamiyat aksiyalarini ommaviy joylashtirishga (“IPO”) tayyorlarlik ko’rish muddati	“IPO” natijalarini e’lon qilish
1.	“O’zmetkombinat” AJ	IPO	2022-yil sentyabr	(2022-yil IV chorak — 2023-yil I chorak
2.	“Qurilishmashlizing” AJ	IPO	2022-yil dekabr	Anderrayterlar bilan kelishilgan muddatlarda
3.	“Uzbekistan Airways” AJ	IPO	2022-yil sentyabr	Anderrayterlar bilan kelishilgan muddatlarda
4.	“O’zbekinvest” AJ	IPO	2022-yil dekabr	2023-yil II-III chorak
5.	“O’ztransgaz” AJ	IPO	Anderrayterlar va konsulantlar tavsiyasiga ko’ra	Anderrayterlar va konsulantlar tavsiyasiga ko’ra
6.	AT Xalq banki	IPO	2022-yil sentyabr	2023-yil II chorak
7.	“O’zagrosug’urta” AJ	IPO	2022-yil noyabr	2023-yil III-IV chorak
8.	“Qishloq qurilish bank” ATB	IPO	2022-yil davomida	2022-yil oktyabr
9.	“Agrobank” ATB	IPO	2022-yil avgust — oktyabr	2023-yil iyun
10.	“O’zmilliybank” AJ	IPO	2022-yil oktyabr	2023-yil iyun
11.	“O’zbekneftgaz” AJ	IPO	2022-2023-yillar	2023-yil mart
12.	“Mikrokreditbank” ATB	IPO	2022-yil dekabr	2023-yil iyun
13.	“Uzauto Motors” AJ	IPO	2022-yil avgust	(2022-yil IV chorak — 2023-yil I chorakda kutilmoqda)
14.	“O’zavtosanoat” AJ	IPO	2022 yil oktyabr	2023 yil mart
15.	AT “Aloqabank”	IPO	2023 yil yanvar	2023-yil aprel
16.	“O’ztemiryo’lkonteyner” AJ	IPO) / (SPO	2022-yil oktyabr	2023-yil iyun
17.	“O’zbekiston pochtasi” AJ	SPO	2022-yil dekabr	Anderrayterlar va moliyaviy konsulantlar tavsiyasiga ko’ra
18.	“O’zbekgeofizika” AJ	IPO	2022-yil oktyabr	2023-yil II-III chorak
19.	“Universal Sug’urta” AJ	SPO	2022-yil sentyabr	2023-yil iyun
20.	“Alskom” AJ	SPO	2022-yil sentyabr	2023-yil iyun
21.	“Dori-Darmon” AJ	SPO	2022-yil sentyabr	Aksiyalarni ikkilamchi ommaviy joylashtirgandan so’ng bir oy ichida



1-jadvalda 2022-2023-yillarda davlat ishtirokidagi 21 ta yirik aksiyadorlik jamiyatlari fond birjasida aksiyalarini birlamchi va ikkilamchi ommaviy joylashtirishi rejalashtirilgan edi. UzAuto Motors avtokonsernining IPOsida kompaniya aksiyalarining roudshouda e'lon qilingan 5 foiz o'rniga atigi 0,29 foizi sotilgan. Kompaniya kutilgan 90 million dollar o'rniga 5 million dollar (56,9 milliard so'm) jalb qila olgan bo'lsada, bu joylashtirish mamlakat tarixidagi eng yirik ko'rsatkichga aylandi. 2023-yil 20-fevralda «Toshkent» Respublika fond birjasi ikkilamchi bozorida (RFB) UzAuto Motors aksiyalarining savdosi boshlangan. Kompaniya o'tgan yili birjaga chiqishi kerak edi, ammo yopilish sanasi talab pastligi sababli ikki marta ortga surilgan. Birinchi marta, 2022-yil 22 - dekabrdan 28-dekabrgacha, keyin esa 2023-yil 15-fevralgacha. Natijada, IPO obuna kompaniyasi jarayoni ikki oydan ortiq davom etgan. Institutsional investorlar sotilgan aksiyalar umumiy hajmining 80 foizini, jismoniy shaxslar esa 20 foizini (taxminan 1 million dollar) sotib olganlar. Qolgan qolgan aksiyadorlik jamiyatlari ham o'z IPO va SPO amaliyotlarini 2023-yilda amalga oshirishlari kutilmoqda.

## **Xulosa**

Umuman olganda, aksiyalarni ommaviy joylashtirish bozor rivojlanishi dinamikasida ijobjiy holat hisoblanadi va kompaniya o'sishi, rivojlanishi va faoliyatini kengaytirish uchun katta miqdordagi zaxiraga ega bo'lish va bu kelgusida uzoq muddat davomida kompaniya istiqboli uchun chet el kapital bozorlariga chiqishni nazarda tutadi. Yana shuni qayd etish joizki, korporativ tuzilmalarda yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirish borasida mamlakat iqtisodiyoti uchun tizimli ahamiyatga ega, lekin bu asosan xususiy investorlarni jalb qilish orqali amalga oshadi. Shu maqsadda, kompaniyalarga imkoniyat yaratuvchi IPO mexanizmi ham milliy va xorijiy investorlarni jalb qilish imkonini beradi. Bu jihatdan, kompaniyaning ommaviylik holati aksiyalarni qo'shimcha emissiya qilish va kapital bozorida sotish orqali qo'shimcha kapital jalb qilish imkonini yuzaga keltiradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-sod Farmoniga 1-ILOVA <https://lex.uz/docs/-5371091>
2. Элмирзаев С.Э, Боев Б.Ж. –Акцияларни оммавий жойлаштириш операцияларини ташкил этиш ва ўtkазиш“Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. №3, июнь, 2018 йил [www.interfinance.uz](http://www.interfinance.uz) 2



**Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Paris, France.**

**Date:** 19<sup>th</sup> July, 2023

**ISSN:** 2835-3730

**Website:** econferenceseries.com

3. J.Ataniyazov, E.Alimardonov, F.Hamidova. Xalqaro moliya bozori tahlili, o‘quv qo‘llanma. – T.: TMI, 2019. 35 bet.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.08.2022 yildagi 446-son qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-6157949>

a



**E-Conference Series**

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings